
MAKTABLARDA ISITISH TIZIMI SOZ XOLATDA

Toshloq tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish uchun tizimli ishlar olib borildi. Birgina tumandagi barcha ta'lim muassasalarining holati va isitish tizimlari o'rganilib, chora-tadbirlar belgilab olindi. Tayyorgarlik ishlarining o'z vaqtida bajarilishi va sifatini nazorat qilish maqsadida mas'ul vakillar, hududiy nazoratchilar biriktirildi. Mavsumda ta'lim muassasalarining barqaror ishlashini ta'minlash uchun yetarlicha ko'mir va briket zaxirasi yaratildi.

Kuz-qish mavsumini betalofot o'tkazish maqsadida 15-umumta'lim maktabida ham ishchi guruhi tashkil etilgan. Maktab hududida obodonlashtirish ishlari olib borildi. O'quv binosi va sinfxonalar bo'yaldi, singan deraza oynalari almashtirildi, maktab atrofi tartibga keltirildi. Ayniqsa, issiqlik tizimining to'la ta'mirlangani mavsumni xotirjam o'tkazishini kafolatlaydi.

Aytish mumkinki, tumandagi mavjud umumta'lim maktablarida kuz-qish mavsumiga puxta hozirlik ko'rilgan. Deraza tirqishlari berkitilib, issiqlikni saqlash choralari ko'rildi. Rejadagi ko'mir yoqilg'isi jamg'arilgan. Ayni kunlarda issitish qozonxonalarini to'liq ishlatilib, o'quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

2022-11-03 08:09:38